

PROFILAKTIK EMLASH HAQIDA TUSHUNCHAGA EGAMISIZ?

Tuzuvchi: Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Umumkasbiy fanlar kafedrası mudiri:

Azizova Gulchexra

Annotatsiya: Ushbu maqolamizni yozishdan asosiy maqsadim, aholini profilaktik emlash tartibi haqida tushunchaga ega bo'lishlari uchun va vaktsinatsiya va revaktsinatsiya haqida tushuncha berish bundan tashqari emlashni inson salomatligi uchun muhim ekanligini tushuntirishdan iborat.

Kalit so'zlar: emlash, vaktsina , revaktsinatsiya, papiloma virusi, KPK,

Yangi tug'ilgan chaqaloq sizning oila a'zoyingiz bo'lishi bilan birgalikda yurtimizning kelajak avlodi hamdir. Chaqaloqlarning ilk kunlaridan boshlab to balog'at yoshiga yetgunga qadar amalga oshiriladigan emlash muolajalari uning sog'lig'ini mustahkamlashga qaratilgan



O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2009-yil 9- fevraldagi N-0239-07 sonli buyrug'iga profilaktik taqvimiga 2015- yilda yangilik kiritilgan

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasiga ko'ra Profilaktik emlashlar profilaktik emlashlarning milliy kalendariga (taqvim) muvofiq, shuningdek epidemik ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkaziladi.

Har bir davlatda yuqumli kasalliklarga qarshi emlashni tashkil etish tegishli taqvimga (jadval) asosan amalga oshiriladi. Mazkur jadvallarda yuqumli kasalliklarga qarshi kimlar, qachon va qaysi paytda emlanishi lozimligi yuzasidan ko'rsatmalar aks ettiriladi.

Xuddi shunday, O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan yuqumli kasalliklarga qarshi emlashni tashkil etish yuzasidan profilaktik emlashlarning milliy kalendari (taqvimi) va Epidemiologik ko'rsatma bo'yicha profilaktik emlash kalendari tasdiqlangan.

Bugungi kunda profilaktik emlashlarning milliy kalendariga (taqvimiga) ko'ra profilaktik emlash bilan chaqaloqlar 1-kunligida VGV-1, 2–5 kunligida BSJ-1, 2–4 oylik, 12 oylik, 16 oylik, shuningdek 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrda turli xil yuqumli kasalliklarga qarshi immunitet hosil qilish uchun emlashlardan o'tkaziladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROFILAKTIK EMLASHLAR KALENDARI

Yosh	Emlash turi
1 sutkada	VGB-1
2-5 kun	BCJ-1
2 oylik	OPV-1; Rota-1 (rotavirus vaktsinasi og'iz orqali) Penta-1 (AKDS-1, VGB-2, XIB-1); Pnevmo-1
3 oylik	OPV-2, Rota-2 (rotavirus vaktsinasi og'iz orqali) Penta-2 (AKDS-2, VGB-3, XIB-2); Pnevmo-2
4 oylik	OPV -3, Penta -3 (AKDS -3, VGB-4, XIB-3); IPV,
9 oylik	IPV-2
12 oylik	KPK -1; Pnevmo -3
16 oylik	OPV – 4; AKDS–4
6 yosh	KPK -2
1 sinf (7 yosh)	OPV -5; ADS-M- 5
9 yosh	VPCh
16 yosh	ADS-M-6

VGB - gepatit B ga qarshi vaktsina
 OPV - poliomielitga qarshi vaktsina
 BCJ - silga qarshi vaktsina
 Rota - rotavirus infeksiyaga qarshi - virusli diareyaga qarshi
 KPK - qizamiq-parotit-qizilchaga qarshi
 AKDS - difteriya-ko'kyo'tal-qoqsholga qarshi
 Pentavalent - difteriya-ko'kyo'tal-qoqshol-gepatit B-xib infeksiyaga qarshi
 ADS-M - difteriya-qoqsholga qarshi vaktsina
 Pnevmo - pnevmokokk infeksiyaga qarshi
 VPCh - odam papilloma virusiga qarshi

Shuningdek, Epidemiologik ko'rsatma bo'yicha profilaktik emlash kalendariga ko'ra 13 ta kasallik turlari bo'yicha kelib chiqishi mumkin bo'lgan epidemiologik xavfning oldini olish maqsadida, emlanishi lozim bo'lgan kontingentlar ro'yxati tasdiqlangan.

Xususan, ushbu ro'yxatda gripp, shol, qizamiq va qizilcha, bo'g'ma va boshqa epidemiologik kasalliklarga qarshi emlanishi lozim bo'lgan kontingentlar ro'yxati belgilangan. Xuddi shunday, epidemiologik vaziyatdan kelib chiqib koronavirusga qarshi profilaktik emlash ham Epidemiologik ko'rsatma bo'yicha profilaktik emlash kalendariga kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Q.Inamov bolalarda hamshiralik parvarishi.

Ziyayeva Bolalar kasalliklari ,

WWW.Ziyo.net internet saydi

WWW.Google.uz va pediatriyaga oid uslubiy qo'llanmalardan foydalanildi.